

**ARALASH TA'LIM VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA
TUSHUNCHALARINING FALSAFIY-PEDAGOGIK TAHLILI****Badalova Zilola Olimjon qizi***Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
pedagogika mutaxassisligi I-bosqich magistranti**Email: zilolabadalova@190.com**+99893 924-51-12*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada global raqamli transformatsiya sharoitida zamonaviy ta'lim paradigmasining asosi hisoblangan "aralash ta'lim" tushunchasining falsafiy-pedagogik mohiyati tadqiq etiladi. Muallif raqamli texnologiyalarni ta'limga integratsiya qilish shunchaki texnik jarayon emas, balki pedagogik ong va ontologik yondashuvning o'zgarishi ekanligini asoslab beradi. Maqolada raqamli transformatsiyaning gnoseologik ildizlari, an'anaviy va innovatsion ta'lim tizimlarining sintezi hamda ushbu jarayonning sub'ekt-sub'ekt munosabatlariga ta'siri falsafiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida aralash ta'lim modelining inson kapitalini rivojlantirishdagi strategik o'rni va uning pedagogik prinsiplari tizimlashtirilgan.*

Kalit so'zlar: *Raqamli transformatsiya, aralash ta'lim, Blended learning, ta'lim falsafasi, raqamli pedagogika, kognitiv yondashuv, ontologiya, gnoseologiya, texnologik determinizm, axborot jamiyati, innovatsion ta'lim modeli.*

ASOSIY QISM

XXI asr insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichi sifatida axborotlashgan jamiyatning shakllanishi bilan xarakterlanadi. Bu jarayon ta'lim tizimiga ham o'zining chuqur ta'sirini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, raqamli transformatsiya natijasida ta'lim tizimida yangi yondashuvlar, metodologiyalar va texnologiyalar paydo bo'ldi. Mazkur o'zgarishlar ichida aralash ta'lim modeli alohida ahamiyat kasb etadi. Aralash ta'lim bu an'anaviy (yuzma-yuz) va onlayn ta'lim shakllarining integratsiyasidan iborat bo'lib, o'quv jarayonini yanada moslashuvchan va samarali qilishga qaratilgan pedagogik yondashuvdir.⁸⁶ Shu bilan birga, raqamli transformatsiya bu jamiyatning barcha sohalarida, jumladan ta'limda ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali sifat jihatidan yangi bosqichga o'tish jarayonidir.⁸⁷

⁸⁶ Graham C.R. Blended learning systems: Definition, current trends, and future directions. – San Francisco: Pfeiffer Publishing, 2006. – P. 3-21.

⁸⁷ Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. – Geneva, 2016.

Tadqiqot ishining asosiy nazariy ob’ekti aralash ta’lim va raqamli transformatsiya tushunchalarini falsafiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilish, ularning o‘zaro bog‘liqligini ochib berish va zamonaviy ta’lim tizimidagi o‘rnini aniqlashdan iborat. Raqamli transformatsiya tushunchasi nafaqat texnologik, balki ijtimoiy-falsafiy fenomen sifatida ham qaraladi. U jamiyatning bilim ishlab chiqarish, uzatish va qabul qilish tizimlarini tubdan o‘zgartiradi. Axborot jamiyati nazariyasiga ko‘ra, bilim asosiy resursga aylanadi va uni boshqarish jamiyat taraqqiyotining asosiy omiliga aylanadi.⁸⁸ Falsafiy nuqtai nazardan, raqamli transformatsiya postindustrial jamiyatdan axborot jamiyatiga o‘tish jarayonining mantiqiy davomidir. Bu jarayonda inson va texnologiya o‘rtasidagi munosabatlar qayta shakllanadi. Texnologiya endilikda faqat vosita emas, balki bilish jarayonining faol subyekti sifatida namoyon bo‘ladi.

Bundan tashqari, raqamli transformatsiya epistemologik o‘zgarishlarga ham olib keladi. Bilim olish jarayoni markazlashgan tizimdan desentralizatsiyalashgan tizimga o‘tadi. Internet, sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar bilim manbalarining ko‘payishiga va ochiqligiga sabab bo‘lmoqda.⁸⁹ Raqamli transformatsiyaning falsafiy jihatlarini pedagogik sohada keng qo‘llanilishini tamin etish maqsadida ko‘plab olimlar jamoasi yangi nazariyalar va metodlarni taqdim etishmoqda. Shulardan ayrimlari haqida to‘xtalib o‘tamiz. M. Kastels, I. Floridi va S. Jizhek kabi mutafakkirlar tomonidan axborotlashgan jamiyat ontologiyasi doirasida tahliliy ishlar amalga oshirilgan. L. Floridi raqamli texnologiyalar shunchaki asbob emas, balki biz yashayotgan va bilimlarni o‘zlashtirayotgan "infosfera"ni yaratuvchi ekotizim ekanligini ta’kidlaydi.⁹⁰ O‘zbekistonlik olimlardan R.X. Djuraev, U.Sh. Begimkulov va N.I. Taylaqovlarning tadqiqotlarida ta’limni axborotlashtirishning pedagogik-prognostik modellari ishlab chiqilgan. Biroq, raqamli transformatsiyaning aynan falsafiy-metodologik asosi va uning aralash ta’lim paradigmasi bilan bog‘liqligi masalasi hali ham kompleks tadqiqotlarga muhtoj bo‘lib qolmoqda.

Aralash ta’lim aslida nima mazmuni beradi?

Aralash ta’lim bu raqamli transformatsiyaning pedagogik javobidir. Uning falsafiy mazmunida dialektik birlik yotadi, ammo an’anaviy ta’limning jonli muloqoti va masofaviy ta’limning texnologik moslashuvchanligi sintezlanib, yangi sifat darajasidagi aralash ta’lim paydo bo‘ladi. Falsafiy-pedagogik tahlil shuni ko‘rsatadiki, aralash ta’lim modelida talaba passiv ob’ektdan proaktiv sub’ektga aylanadi. Bu yerda kognitiv mustaqillik printsipli birinchi o‘ringa chiqadi. Raqamli transformatsiya sharoitida o‘qituvchi endi yagona axborot manbai emas, balki navigator, moderator va tyutor funksiyasini bajaradi. Bu esa ta’limning

⁸⁸ Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford, 2010.

⁸⁹ Selwyn N. Education and Technology. – London, 2011.

⁹⁰ Floridi L. The Onlife Manifesto: Being Human in a Hyperconnected Era. – Springer Open, 2015. – P. 11.

demokratlashuviga va talabaning shaxsiy ta'lim trayektoriyasini mustaqil belgilashiga olib keladi.⁹¹

An'anaviy ta'lim va raqamli muhitning konvergensiyasi

Zamonaviy pedagogik voqelikda an'anaviy ta'lim va raqamli texnologiyalar endi parallel mavjud bo'lgan ikki tizim emas, balki bir-birini taqozo etuvchi gibrid reallikni tashkil etmoqda. Falsafiy tilda bu jarayonni ta'limiy konvergensiya deb atash mumkin. O'zbekistonlik olim, professor U.Sh. Begimkulov "Ta'limni axborotlashtirish shunchaki texnik qurollanish emas, balki ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarning yangi sifat bosqichiga ko'tarilishidir" deb ta'kidlagan.⁹² Ushbu sintez jarayonida bir necha muhim falsafiy-pedagogik ziddiyatlar yechimini topadi va nazariy jihatdan savollarga aniq yechim bo'lib xizmat qiladi. Individuallik va ommaviylik nuqtayi nazaridan raqamli platformalar (Moodle, Coursera, HEMIS) bir vaqtning o'zida minglab talabalarni qamrab olsa-da, sun'iy intellekt va adaptiv algoritmlar orqali har bir talabaning o'zlashtirish tezligiga moslashadi. Bu ta'limning antropotsentrik⁹³ mohiyatini kuchaytiradi.

Bundan tashqari sinxron va asinxron muloqot metodi jihatdan aralash ta'limda vaqt va makon tushunchalari transformatsiyaga uchraydi. Pedagog olim N.I. Taylaqov tadqiqotlarida qayd etilganidek, raqamli muhit uzluksiz ta'lim konsepsiyasini amaliy realizatsiya qilish imkonini beradi.⁹⁴ Ya'ni, bilim olish jarayoni faqat auditoriya soatlari bilan cheklanib qolmasdan, virtual makon orqali asinxron rejimda davom etadi. O'zbekiston pedagogikasi kontekstida raqamli transformatsiya jarayoni nafaqat bilimlarni uzatish, balki milliy qadriyatlarni zamonaviy formatda talabalarga yetkazish vazifasini ham bajarmoqda. Masalan, R.X. Djurayev asarlarida ta'lim muhitining o'zgarishi sharoitida pedagogik mahoratning yangi qirralari, xususan, "virtual pedagogik muloqot etikasi" masalasiga alohida urg'u beriladi.⁹⁵

Aralash ta'lim modelining raqamli transformatsiya sharoitidagi istiqbollari tahlil qilar ekanmiz, bir qator kognitiv-psixologik muammolar yuzaga chiqishini e'tirof etishimiz lozim. Birinchidan, raqamli avlod bo'lgan bugungi talabalar axborotni klip shaklida qabul qilishga moyil bo'lib bormoqdalar. Bu esa fundamental akademik ta'limning tizimlilik tamoyiliga qisman zid keladi.

⁹¹ Garrison D.R., Kanuka H. Blended learning: Uncovering its transformative potential in higher education. – Internet and Higher Education, 2004. – Vol. 7(2). – P. 95-105.

⁹² Begimkulov U.Sh. Oliy pedagogik ta'limda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: Fan, 2007. – B. 45.

⁹³ Insonga yo'naltirilgan va markazda inson turadi degan asosiy g'oya yoki tushuncha.

⁹⁴ Taylaqov N.I. Uzluksiz ta'lim tizimida axborot muhitini yaratishning pedagogik asoslari. – T.: O'zPFITI, 2010. – B. 112.

⁹⁵ Djurayev R.X. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Voris-Nashriyat, 2012. – B. 88.

Ikkinchidan, pedagogik hamjamiyatda texnologik pessimizm saqlanib qolmoqda. Ba’zi tadqiqotchilar raqamlashtirishni o‘qituvchining jonli ta’sir kuchining yo‘qolishi deb baholaydilar. Biroq, bizning fikrimizcha, aralash ta’lim bu o‘qituvchini siqib chiqarish emas, balki uni texnik va rutun vazifalardan ozod qilib, ko‘proq ijodiy va tarbiyaviy muloqotga yo‘naltirishdir. Shuningdek, o‘zbek olimi B.S. Abdullayeva o‘zining metodologik izlanishlarida ta’kidlaganidek, raqamli muhitda talabani kognitiv moslashuvchanligi muhim o‘rin tutadi.⁹⁶ Bu degani, talaba nafaqat ma’lumotni topishi, balki uning ishonchliligini tahlil qila olishi ya’ni tanqidiy fikrlash madaniyatiga ega bo‘lishi shart.

XULOSA

O‘tkazilgan falsafiy-pedagogik tahlillar va raqamli transformatsiya jarayonlarining tadqiqi shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ta’lim paradigmasi shunchaki texnik modifikatsiya bosqichidan o‘tib, o‘zining ontologik statusini tubdan o‘zgartiruvchi yangi davrga qadam qo‘ydi. Raqamli transformatsiya ta’lim muhitini an’anaviy fizik makondan gibridd xarakterdagi virtual makonga ko‘chirish orqali bilish faoliyatining yangi formatini yaratdi. Bu jarayonda aralash ta’lim modeli dialektik sintez vazifasini bajarib, an’anaviy pedagogikaning kommunikativ-emotsional qadriyatlarini raqamli texnologiyalarning operatsion va adaptiv imkoniyatlari bilan uyg‘unlashtirdi.

Falsafiy jihatdan yondashganda, aralash ta’lim tizimi talabani passiv axborot qabul qiluvchi ob’ektdan o‘z ta’lim trayektoriyasini mustaqil belgilovchi proaktiv sub’ekt darajasiga ko‘tarilishini ta’minlaydi. Bunda pedagogning roli axborot uzatish monopoliyasidan voz kechib, strategik moderatorlik va kognitiv tyutorlikka transformatsiya bo‘lishi zamon talabidir. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ushbu modelning muvaffaqiyatli tatbiq etilishi faqat texnik infratuzilmani yaratish bilan cheklanib qolmay, balki pedagogik jamoaning raqamli mentaliteti va metodik kompetensiyalarini tizimli ravishda o‘zgartirishni taqozo etadi. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, raqamli transformatsiya sharoitidagi aralash ta’lim — bu nafaqat texnologik ehtiyoj, balki axborot jamiyatida inson kapitalini sifatli rivojlantirishning fundamental falsafiy-pedagogik asosi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O‘zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-6079-son Farmoni.

⁹⁶ Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik asoslari. – T.: Fan va texnologiya, 2015. – B. 67.

2. Begimkulov U.Sh. Oliy pedagogik ta’limda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. – T.: Fan, 2007. – 160 b.
3. Djurayev R.X., Qurbonov Sh.E. Ta’limni boshqarish. – T.: Voris-Nashriyot, 2012. – 592 b.
4. Taylaqov N.I. Uzluksiz ta’lim tizimida axborot muhitini yaratishning pedagogik asoslari: Ped. fan. dok. ... dissertatsiyasi. – T.: 2010.
5. Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik asoslari. – T.: Fan va texnologiya, 2015.
6. Castells M. The Information Age: Economy, Society, and Culture. – Oxford: Blackwell, 2010.
7. Floridi L. The Onlife Manifesto: Being Human in a Hyperconnected Era. – Springer Open, 2015.
8. Garrison D.R., Vaughan N.D. Blended Learning in Higher Education: Framework, Principles, and Guidelines. – John Wiley & Sons, 2008.
9. Graham C.R. Blended learning systems: Definition, current trends, and future directions. – San Francisco: Pfeiffer Publishing, 2006.
10. Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. – World Economic Forum, 2016.
11. Sharples M. Practical Pedagogy: 40 New Ways to Teach and Learn. – Routledge, 2019.
12. UNESCO. Education in a digital world: the challenges of a globalised world. – Paris: UNESCO, 2021.